

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 7 | **2026**
ISSUE 1

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 7, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 7, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси профессори,
филология фанлари доктори (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети, фалсафа доктори (PhD) (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессори, филология фанлари
доктори, (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

УСМАНОВ ИБРОҲИМ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний
Номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими,
тарих фанлари номзоди, доцент (Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети профессори
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛПРАЗЕК САДЕК АБДЕЛПРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
профессор в.б., фалсафа фанлари доктори (Dcs) (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети профессор в.б, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

AMIROV AZAMAT ODIL O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori o'rinbosari
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АҚМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ҲҲЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Х.Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

Профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета
Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академик Академии наук Узбекистана,
Академии искусств Узбекистана, доктор
искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Профессор Центра евроазиатских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ИСФТ, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Профессор Международной исламской академии
Узбекистана, доктор филологических наук (Узбекистан)

КЛЕР РОСИЕН

Йельский университет, доктор философии PhD (США)

АНТониО АЛОНСО МАРКОС

Профессор Университета CEU Сан-Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Профессор Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор филологических наук (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

УСМАНОВ ИБРОХИМ

Старший научный сотрудник Института востоковедения
имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана,
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

АХМЕД МУСА АБДЛАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Профессор Национального университета Казахстана
имени Аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

Профессор Андижанского государственного
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Профессор Наманганского государственного технического
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛЬБАР ИРГАШЕВНА

И.о. профессора Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (DSc) (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Профессор Навоийского государственного педагогического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

ЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

И.о. профессора Наманганский государственный университет,
доктор философских наук (PhD) по социологии (Узбекистан)

АМИРОВ АЗАМАТ ОДИЛ УГЛИ

заместитель директора координационно-методического
центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при
Академии наук Республики Узбекистан, доктор
философских наук (PhD), доцент

ОДИНАЕВА ЗЕБИНСО ИБРОХИМОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философии (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРАД ОГЛИ

PhD докторант Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Х. Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician
of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan)

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

USMANOV IBROHIM

Associate Professor of Abu Rayhon Beruniy Institute
of Oriental Studies, Academy of Sciences of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD (Arab Republic of
Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Professor of Andijan State University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

FAYZIKHODJAYEVA DILBAR IRGASHEVNA

Acting Professor of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

Professor of the Navai State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Acting Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences
(Uzbekistan)

AMIROV AZAMAT ODIL UGLI

Deputy Director of the Coordination and Methodological Center for
the Latest History of Uzbekistan under the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in
Philosophical Sciences, Docent

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Kh.Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Norov Toji Omonovich ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA IQTISODIY MASALALARINING GUMANISTIK TALQINI.....	7
2. Нилуфар Абдурахмонова Зайнобиддин кизи, Шамсиева Гульшода Аслиддин кизи АНАЛИЗ КОНТЕКСТНО-ЗАВИСИМЫХ ЕДИНИЦ В МАШИННОМ ПЕРЕВОДЕ НА ОСНОВЕ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА (НА ПРИМЕРЕ ПЛАТФОРМЫ PARATRANSLATOR.UZ).....	14
3. Tangirov Nizom Abduraxmonovich, Kadirova Guzal Nuritdinovna OLIM MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOVNING O‘ZBEK TEATR SAN’ATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.....	21
4. Амиров Азамат Одил угли СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА.....	26
5. Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li SOVET ORIYENTALIZMI VA TARIXIY XOTIRANING MAFKURAVIY REKONSTRUKSIYASI: SOVET KINOSIDA ALISHER NAVOIY OBRAZINING TALQINI...33	
6. Israfilov Doston Omonulla o‘g‘li PRINCIPLES FOR DETERMINING INTERLEVEL GRAMMATICAL MINIMUMS IN TEACHING UZBEK TO ENGLISH SPEAKERS.....	41
7. Xo‘jaqulova Munira Islom qizi FALSAFA VA DIN INSON MA’NAVIYATINING ASOSI.....	48
8. Bekchanova Manzura Shuxratovna IGNATS GOLDZHERNING “SAHIHI BUXORIY” ASARIGA OID TADQIQOTI.....	60
9. Archabayeva Nargiza Nasimovna LINGVOTEJAMKORLIKNING NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA PRAGMATIK IFODALANISHI.....	66


ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**

Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li
Tashkent Perfect university
“Gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: dostonbek.r@perfectuniversity.uz

**SOVET ORIENTALIZMI VA TARIXIY XOTIRANING MAFKURAVIY
REKONSTRUKSIYASI: SOVET KINOSIDA ALISHER NAVOIY OBRAZINING TALQINI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21007833>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sovet oriyentalizmining kinodagi mafkuraviy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda avvalo sovet oriyentalizmining nazariy-paradigmatal asoslari hamda uning Sharq xalqlari va madaniyatlarini tasvirlashdagi mafkuraviy xususiyatlari yoritilib, “Kavkaz asirasi” va “Oq sahro quyoshi” kinofilmlari “Alisher Navoiy” badiiy filmining oriyentalistik kontekstdagi tahlilini amalga oshirishda nazariy-metodologik asoslarni kuchaytirish maqsadida ko‘rib chiqilgan. Maqolada “Alisher Navoiy” filmi misolida o‘zbek milliy madaniyati, tarixiy xotira va Sharq representatsiyasining sovet mafkurasi doirasida qanday amalga oshirilganligini yoritishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: oriyentalizm, rus oriyentalizmi, sovet oriyentalizmi, sovet kinosi, Sharq obrazi, representatsiya, Alisher Navoiy, Kavkaz asirasi, Oq sahro quyoshi, mafkura, postkolonializm, rekonstruksiya.

Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li
Lecturer, Department of Humanities
Tashkent Perfect University
E-mail: dostonbek.r@perfectuniversity.uz

**SOVIET ORIENTALISM AND THE IDEOLOGICAL RECONSTRUCTION OF
HISTORICAL MEMORY: THE REPRESENTATION OF ALISHER NAVOI IN SOVIET
CINEMA****ABSTRACT**

This article examines the ideological mechanisms of Soviet Orientalism in cinema. The study first explores the theoretical and paradigmatic foundations of Soviet Orientalism as well as its ideological approaches to representing Eastern peoples and cultures. The films “Kidnapping, Caucasian Style” and “White Sun of the Desert” are analyzed as theoretical and methodological references for strengthening the Orientalist interpretation of the feature film Alisher Navoi. Using Alisher Navoi as a case study, the article seeks to reveal how Uzbek national culture, historical memory, and representations of the East were reconstructed and interpreted within the framework of Soviet ideology.

Keywords: Orientalism, Russian Orientalism, Soviet Orientalism, Soviet cinema, image of the East, representation, Alisher Navoi, Kidnapping, Caucasian Style, White Sun of the Desert, ideology, postcolonialism, reconstruction.

Рузибоев Достонбек Дилмурод угли
Преподаватель кафедры гуманитарных наук
Tashkent Perfect University
E-mail: dostonbek.r@perfectuniversity.uz

СОВЕТСКИЙ ОРИЕНТАЛИЗМ И ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ РЕКОНСТРУКЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА АЛИШЕРА НАВОИ В СОВЕТСКОМ КИНО

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются идеологические механизмы советского ориентализма в кинематографе. В исследовании рассматриваются теоретико-парадигмальные основы советского ориентализма, а также его идеологические особенности в репрезентации народов и культур Востока. Фильмы «Кавказская пленница» и «Белое солнце пустыни» используются в качестве теоретико-методологической основы для ориенталистского анализа художественного фильма «Алишер Навои». На примере фильма «Алишер Навои» автор стремится показать, каким образом узбекская национальная культура, историческая память и репрезентация Востока были переосмыслены и реконструированы в рамках советской идеологии.

Ключевые слова: ориентализм, русский ориентализм, советский ориентализм, советское кино, образ Востока, репрезентация, Алишер Навои, «Кавказская пленница», «Белое солнце пустыни», идеология, постколониализм, реконструкция.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Orientalizmni Edvard Said yangi bir ma'noda konseptualashtirganidan qariyb yarim asr o'tgan bo'lsa-da, deyarli barcha ilg'or fikr maktablarida ko'p bosqichli muhokamadan o'tganiga qaramasdan, bu fenomen hanuz Markaziy Osiyo akademik jamoatchiligida juda kam muhokama qilingan mavzu bo'lib qolmoqda. Vaholanki, mustamlaka tarixiga ega bo'lgan jamiyatlarda Said, Spivak, Bhabha va boshqa postkolonial nazariyotchilar asoslagan postkolonial tadqiqotlar sohasi dekolonial tendensiya doirasida shiddat bilan rivojlanib, uning tadqiqot sohasi falsafadan san'atgacha, matnshunoslikdan zamonaviy mediagacha kengayganligini ko'rish mumkin.

Edvard Saidning "Orientalizm" konsepsiyasi G'arbning Sharq xalqlarini qanday tasvirlashi va ularga qanday munosabatda bo'lishini tushuntiradi. Orientalizm konsepsiyasining shakillanishi bevosita interpretatsiya muammosi bilan bog'liqlikda shakllangan edi. Saidning ta'kidlashicha, G'arb (yoki "Oksident") Sharqni ("Orient") ekzotik, orqada qolgan, arxaik, xavfli yoki tushunarsiz hudud sifatida ko'rsatib, bu tushunchalarni joriy qilish bilan o'z dominantligini mustahkamlashni maqsad qilgan. Bu konsepsiyaga ko'ra, Sharq xalqlari va madaniyatlari haqidagi tasvirlar ko'pincha stereotiplar asosida shakllangan bo'lib, haqiqiy madaniy xilma-xillikni aks ettirmaydi. Zamonaviy davrda ham "odamlarning dunyoqarashini shakllantiradigan, tomoshabin fikrini o'zgartiradigan, fikrlash va qaror qabul qilish mexanizmlariga ta'sir ko'rsatadigan media-madaniy mahsulotlar oriyentalizm tomonidan yaratilgan "biz" va "boshqalar" tushunchasini yaratuvchi "Sharq fantaziyasi" muammosini yuzaga keltirdi" [1, 43-B].

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: nima uchun Said asoslagan bu konsepsiya va undan unib chiqqan paradigmalar sobiq sovet makoniga juda kech kirib keldi? Bu mavzu ma'lum bir ma'noda muhokama qilindi, lekin juda tor doirada. Eng kamida katta bir yo'nalishga aylanishi kerak bo'lgan soha juda e'tiborsiz qolgandek tuyuladi.

Shunday bo'lsa ham, so'nggi ikki dekadadagi tadqiqotlar oriyentalizm geografiasini kengaytirib, yangi yo'nalishlar ochmoqda. Shu yangi geografiyalar ichida juda qiziq fenomen – rus oriyentalizmi mavjud bo'lib, u o'zining davriy transformatsiyalaridagi noyobligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. G'arb va Sharq yo'lida tarixiy sargardonlikda qolgan Rus tarixi va unda Sharqni anglash hamda uni yaratish alohida fenomenologik tahlilni talab qiladi.

Said "Orientalizm" asarida rus oriyentalizmini faqat bir-ikki o'rinda tilga oladi, xolos. Said shuning uchun ham tadqiqot doirasini maqsadli tanlab olganlikda ayblangan edi. Saidni bu kabi

masalalarda ayblash, bizningcha, noo‘rin. Chunki Said eng muhim nazariy asoslar yordamida mustamlakachilikdagi bilim, hokimiyat va diskurs muammolarini ko‘tarish orqali uning fundamental asoslariga jiddiy, o‘nglab bo‘lmas darajada zarba berdi. Shuningdek, u dekolonizatsiya tendensiyasiga juda kuchli ta‘sir ko‘rsatib, kolonializm diskursini parchalagan hamda postkolonial paradigmalarni shakllantirgan intellekt edi.

“Said oriyentalizm konsepsiyasidagi nazariy asoslar bilan muhokama qilinganda rus oriyentalizmi uch bosqichli tarixga ega yo‘nalish ekanligi aniqlashadi” [2, 428-432]. Yevropadan Pyotr I davrida kirib kelgan imperiyachilik g‘oyasi bilan bir davrda Rus akademiyasiga Sharqshunoslik sohasi ham kirib kelgan edi. Pyotr I bilan boshlangan rus oriyentalizmi toki rus podsholigi intihosiga qadar Sharqni o‘zlashtirishga unda mustamlakchilikni asoslashga qaratilgan soha o‘laroq mavjud edi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Oktyabr to‘ntarishidan keyin murakkab sovet davri boshlandi. Ko‘plab zamonaviy tadqiqotlar bugungi kunda rus oriyentalizmini imperializmning ratsionalizatsiyasini amalga oshirgan mafkuraviy vosita sifatida talqin qilishda jiddiy ziddiyat ko‘rmaydi. Biroq, masala Sovet davriga kelganda, ushbu tarixiy bosqichni post-kolonial paradigmalar asosida tahlil qilishda muayyan ikkilanishlar yuzaga chiqadi.

Bu ziddiyatdan kelib chiqadigan asosiy savollardan biri shuki: sovet tarixiga mustamlakachilik davri sifatida qarash mumkinmi? Sovet tizimi o‘zini amalda G‘arb burjuaziyasi va imperializmga qarama-qarshi qo‘yib, doimiy ravishda antiimperial kuch sifatida namoyon qilishga harakat qilgan bo‘lsada, biroq ayni paytda u rus imperial tarixini “sivilizatorlik missiyasi”, “madaniylashtirish” va “taraqqiyot olib kirish” diskurslari orqali zaruriy majburiyat sifatida qonuniylashtiradi. Ana shu nuqtada Sovet davlatchiligi G‘arb imperializmining ayrim metodologik va epistemologik asoslarini qayta ishlab chiqish orqali mustamlakachilikning yangi bir shaklini oladi.

So‘nggi yillardagi olib borilgan yirik tadqiqotlarda Sovet Ittifoqining Markaziy Osiyodagi faoliyatini imperiyaviy boshqaruvning o‘ziga xos shakli sifatida talqin qilish tendensiyasi kuchaydi. Xususan, “Aleksandr Morisson, Adeeb Halid, Vera Tolz, Botakoz Kassymbekovalar sovet hokimiyati o‘zini antiimperial va ozod qiluvchi kuch sifatida namoyon qilgan bo‘lsa-da, amalda mahalliy jamiyatlarni siyosiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan qayta shakllantirishga qaratilgan markazlashgan boshqaruv tizimini vujudga keltirganligini ta‘kidlaydi” [3]. Ulardagi umumiy yondashuvga ko‘ra, sovet modernizatsiyasi mahalliy xalqlarga taraqqiyot olib kirish diskursi bilan asoslangan bo‘lsa-da, bu jarayon ko‘pincha markazning periferiya ustidan nazoratini mustahkamlash bilan birga kechgan. Shu sababli Sovet Ittifoqining Sharq xalqlari bilan munosabatlarini faqat modernizatsiya yoki internatsionalizm paradigmalari orqali emas, balki imperiyaviy va postkolonial yondashuvlar asosida ham tahlil qilish zarurdir.

Sovet oriyentalizmi hali to‘liq o‘rganilmagan, ko‘plab ochilmagan va tadqiq etilishi zarur bo‘lgan murakkab yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola o‘zbek ilmiy muhitidagi keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida sovet oriyentalizmining media makonidagi ifodalarini, xususan, sovet kinosida namoyon bo‘lish shakllarini tor va konkret misollar asosida tahlil qilishni maqsad qiladi.

Chunki sovet oriyentalizmi klassik G‘arb oriyentalizmidan farqli ravishda faqat ochiq mustamlakachilik diskursi shaklida emas, balki “xalqlar do‘stligi”, “internatsionalizm”, “madaniy modernizatsiya” kabi murakkab mafkuraviy konstruksiyalar ostida faoliyat yuritgan diskurs hisoblanadi. Shu sababli uni umumiy imperializm doirasida emas, balki alohida kino, adabiyot, teatr, sa‘natshunoslik misollarida mikrotahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etib, sovet oriyentalizmini qismlardan tashkil topgan umumiy qiyofasini yaratish imkonini beradi.

Mediadagi eng kuchli ta‘sir vositalaridan biri, albatta, kino hisoblanadi. Kino san‘atida oriyentalizm tafakkur uslubining nozik unsurlarini tahlil qilish va ochib berish kuchli metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Keyingi davrlarda kinodagi oriyentalizm keng tahlil qilinarkan, oriyentalizmning tanqidiy tahlilida Gollivud mahsulotlariga alohida e‘tibor qaratilib, keng tadqiqotlar olib borilgan. Shu yo‘nalishdagi tadqiqotlar sovet kino mahsulotlari yo‘nalishida ham olib borilgan bo‘lsa-da, tadqiqotlar bir qancha umumiy sovet kinolari bilan cheklanganligini ko‘ramiz.

Xususan, sovet milliy kinolari mafkuraviy jihatdan tahlil qilingan bo'lsa-da, bu tahlillarda siyosiy vaziyat va sharoit tahlilidan nariga o'tilmaganligini ko'rish mumkin. Matn tahlilida yetarlicha metodologik asoslarning yetishmasligi, postkolonial paradigmalarni nuqtayi nazaridan yondashuvning kamligi yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shu metodologik bo'shliqni to'ldirish uchun sovet kinosining o'zini sovet mafkurasi va oriyentalistik representatsiya mexanizmlarining muhim vositasi sifatida ko'rib chiqish lozim. Chunki sovet hokimiyati ilk davrlardanoq kinoning ommaviy ongini shakllantirishdagi ulkan imkoniyatlarini anglab yetgan edi.

Fuqarolar urushi yakuniga kelib, Rossiya Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining deyarli barcha yetakchi a'zolari kinoning siyosiy imkoniyatlarini yuqori baholay boshladilar. "Boshidanoq bolsheviklar nazarida tasvirlar so'zlardan ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatardi. Vizual propaganda savodsiz va yarim savodli ommaga yetib borish hamda ularni yangi sovet turmush tarziga jalb etish kampaniyasining muhim vositasi hisoblangan"[4, 646]. Yoki millatlar ishlari bo'yicha komissar Iosif Stalin ta'biri bilan aytganda, kino "ommaviy tashviqotning eng buyuk vositasi" edi" [5].

Kino singari bolsheviklar ham an'anaviy va zamonaviy ikki dunyo kesishgan nuqtada shakllangan edi. Ular uchun kino eski tartibni tanqid qilish va yangi sovet dunyosini yartish va ulug'lashning eng mukammal vositasi bo'lib xizmat qildi. "Kino ham ular kabi dunyoni bir tomondan qat'iy realizm, ikkinchi tomondan esa yumshoq utopizm orqali talqin qilardi. Montaj yordamida film inson tajribasini boshqarish mumkin bo'lgan vaqt doirasiga jamlay olar, syujet va tomoshani birlashtirar hamda keskin ijtimoiy o'zgarish davrida hayotni namoyish va tahlil qilish uchun go'yoki "muzlatib" qo'yardi"[5, 648].

Shunday qilib, filmlar voqelikni shunchaki qanday bo'lsa shunday tasvirlab qolmaydi, balki uni bolsheviklar qanday bo'lishi kerak deb hisoblagan bo'lsalar, aynan shunday qayta yaratgan. Bu holat "inqilobiy romantizm" yoki "sotsialistik realizm" shaklida namoyon bo'ladi.

Kino vositasi ayniqsa ko'p tili "Sovet Sharqi" hududlarida muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki bu hududlarda bolsheviklarning so'zlari, eng avvalo rus tili, o'zining aloqa va buyruq berish qudratini yo'qotardi. "Sharq" tushunchasi asosan musulmon aholisi ustun bo'lgan Kavkaz va Markaziy Osiyo hududlarini, shuningdek Sibir va Uzoq Sharqni qamrab olardi. G'arbona va nasroniy xalqlar sifatida Gruziya hamda Armaniston odatda bu kategoriyadan chetda qoldirilgan.

Rossiyaning Osiyo bilan chegaradosh hududlaridagi xalqlar uchun kino ongni o'zgartiruvchi vositaga, XX asr boshlarining o'ziga xos virtual realligiga aylandi. Kinodagi sotsialistik realizm bu xalqlarga kelajak sari yo'lni ko'rsatishi kerak edi. Biroq bundan avval ularning o'z o'tmishi va bugunidagi "dahshatlar" namoyish qilinishi lozim edi.

Sotsialistik realizmning yana bir qorong'i tomoni ham mavjud bo'lib, bu "milliy realizm" deb nomlanadi. Bu uslub an'anaviy "kundalik turmush" va arxaik "xalq mentaliteti"ning qorong'u o'tmishini markazga olib chiqib, abstrakt kommunistik kelajakni yanada yorqinroq ko'rsatish uchun milliy unsurlardan iborat rang-barang fon yaratilgan edi.

Shu tariqa "milliy realizm" va "sotsialistik realizm" sovet kinosining salbiy va ijobiy qutblariga aylandi. Bu qarama-qarshi qutblar ezguluk va yovuzlikni ekranda ifodalardi. Mana shu jarayonda Sharq eski dunyo bilan yangi dunyo kurashadigan, an'ana modernlikka o'rin bo'shatadigan hamda sinf, din va gender haqidagi bolshevik tasavvurlari inqilobiy madaniyat yaratish jarayonida birlashadigan sahnaga – obyektga aylantirildi.

Aynan mana shu nazariy asoslar sovet oriyentalizmida kino orqali qanday ishlaganini "Oq sahro quyoshi" (Белое солнце пустыни, 1970) filmi misolida yanada aniqroq ko'rish mumkin [6]. Mazkur film sovet kinosidagi "oriental" motivlarni o'zida jamlagan shu yo'nalishda olingan durdona film hisoblanadi. Film voqealari fuqarolar urushi davridagi cho'l hududlarida kechgan bo'lsa-da, asarning asosiy ideologik vazifasi sovet modernligi va "eski Sharq" o'rtasidagi qarama-qarshilikni vizual ravishda namoyish qilishdan iborat edi.

Filmda Sharq klassik sovet oriyentalizmi uchun xos bo'lgan tarzda "orqada qolgan", patriarxal, irratsional va zo'ravon makon sifatida tasvirlanadi. Cho'l, karvonlar, qurollangan bosmachilar, paranjili ayollar, diniy va qabilaviy muhit kabi elementlar orqali Markaziy Osiyo ekzotik va xavfli hudud sifatida representatsiya qilinadi. Biroq bu representatsiya klassik G'arb

oriyentalizmidagi kabi mutlaq “begona Sharq” emas edi. Sovet oriyentalizmi Sharqni to‘liq rad etmaydi; aksincha uni sovet modernizatsiyasi orqali “to‘g‘rilanishi” kerak bo‘lgan makon sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan film “xalqlar do‘stligi” va “madaniy ozodlik” diskurslari ostida yashiringan paternalistik mafkurani namoyon etadi.

Filmning markaziy qahramoni Suxov aynan mana shu sovet modernizatsion missiyasining ramziy obraziga aylanadi. U Sharqqa tashqaridan kirib keluvchi oddiy harbiy emas, balki tartib, ratsionallik va sovet madaniyatining tashuvchisi sifatida gavdalanadi. Film davomida Suxov Sharqdagi “xaos” va “eskilik” bilan kurashuvchi qahramon sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa sovet kinosidagi ijobiy qahramon konsepsiyasining tipik namunasi hisoblanadi.

Ayniqsa filmda ayol obrazi orqali sovet oriyentalizmining gender jihati ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Abdullo qaramog‘idagi ayollar despotik erkak hukmronligi ostidagi go‘yoki bir mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. Sovet diskursi esa ularni “ozod qilish” g‘oyasini ilgari suradi. Bu yerda G‘arb oriyentalizmidagi “Sharq ayolini qutqarish” narrativi sovet mafkurasida doirasida qayta ishlab chiqilganini ko‘rish mumkin. Natijada ayollar obrazi sovet modernligining axloqiy ustunligini asoslovchi vositaga aylanadi. Bu o‘rinda ham gender oriyentalizmi ishlab sharq ayollari sharqona despotizmning jabrdiydalari ramziga aylanishadi.

Filmning vizual estetikasi ham orientalistik xarakterga ega. Cho‘l manzaralari, sharqona musiqa, milliy kiyimlar Markaziy Osiyoni real tarixiy hududdan ko‘ra ekzotik “Sharq sahnasi”ga aylantiradi. Bu esa yuqorida ta’kidlangan “milliy realizm” konsepsiyasiga mos keladi. Filmida Sharq bir vaqtning o‘zida ham ekzotik, ham xavfli, ham yetaklanishi kerak bo‘lgan hudud sifatida tasvirlanadi. Bu esa sovet oriyentalizmi klassik G‘arb oriyentalizmidan farqli ravishda ochiq mustamlakachilik emas, balki “madaniy modernizatsiya” va “internatsionalizm” diskurslari ostida faoliyat yuritgan mafkuraviy tizim ekanligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Xuddi shunday reprezentatsion mexanizmlari “Kavkaz asirasi”da (Кавказская пленница, или Новые приключения Шурика 1967) ham kuzatiladi [7]. Biroq “Sahroning oq quyoshi”dan farqli ravishda bu yerda sovet oriyentalizmi ochiq dramatik qarama-qarshilik orqali emas, balki komediya, yumor orqali namoyon bo‘ladi. Filmida Kavkaz hududi hissiy, patriarxal, an’anaviy urf-odatlariga haddan tashqari bog‘langan va ekzotik makon sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa “kelin o‘g‘irlash” uruf-odatining markaziy syujetga aylantirilishi Kavkaz xalqlarini zamonaviy sovet tartibidan nisbatan uzoqda qolgan “arxaik Sharq” sifatida reprezentatsiya qilishga xizmat qiladi.

Bu yerda filmning madaniy genealogiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki “Kavkaz asirasi” obrazi rus adabiyoti va imperiyaviy tasavvurida ancha oldin shakllangan edi. Alexander Pushkinning “Kavkaz asiri” hamda Lev Tolstoyning shu nomdagi asarlarida Kavkaz bir vaqtning o‘zida ham romantik erkinlik makoni, ham xavfli va “yovvoyi” hudud sifatida tasvirlangan edi [8]. Rus adabiyotidagi ushbu qarashlar Kavkazni imperiya markazidan tashqaridagi ekzotik “boshqalik” sifatida shakllantirgan muhim diskurslardan biri hisoblanadi. Sovet kinosi esa mazkur imperiyaviy estetikani to‘liq inkor etmadi, aksincha uni yangi sovet mafkurasida doirasida qayta ishlab chiqdi. Bu misol shuni ko‘rsatadiki rus oriyentalizmi barcha davrlarda yagona o‘zakda tadrijiylik va evolyutsion taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan.

Yuqoridagi ikki filmning orientalistik tahlili nisbatan ommabop va ko‘p muhokama qilingan misollar bo‘lganligi sababli, ular mazkur tadqiqotning asosiy obyektiga nazariy asos yaratish maqsadida qisqacha ko‘rib chiqildi. Endi esa sovet oriyentalizmining yanada murakkab va nozik ko‘rinishlaridan biri sifatida Alisher Navoiy filmiga murojaat qilish mumkin. Chunki bu film sovet oriyentalizmining oddiy romantizatsiyasi yoki folklorizatsiya shaklidan ko‘ra murakkabroq – “madaniy integratsiya” va “sivilizatsion o‘zlashtirish” modeli asosida faoliyat yuritgan reprezentatsion tizimini namoyon qiladi.

Tadqiqotimizning asosiy obyekti sifatida belgilagan Alisher Navoiy badiiy filmi sovet o‘zbek kino san’atining yirik namunalaridan biri hisoblanadi. Qolaversa bu film bashariyatning buyuk farzandi Alisher Navoiy haqida olingan birdan bir tarixiy badiiy film hisoblanadi. “Film 1947-yilda suratga olingan bo‘lib, uning ssenariysi Izzat Sulton, Uyg‘un, Aleksandr Speshnev va Viktor Shklovskiy tomonidan yaratilgan. Filmga mashhur o‘zbek rejissyori Kamil Yormatov sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida rahbarlik qilgan. Operatorlik ishlarini M. Krasnyanskiy, badiiy

bezaklarni V. Yeremyan amalga oshirgan bo‘lsa, film musiqasi Reinhold Gliyer va To‘xtasin Sodiqov tomonidan bastalangan. Asarda bosh qahramon Navoiy obrazini Razzoq Hamroyev gavdalantirgan. Shuningdek, filmda T. Nazarova (Guli), A. Ismatov (Husayn Boyqaro), O. Jalilov (Majiddiddin) va Sh. Azimov (Mo‘min Mirzo) kabi aktyorlar ishtirok etgan” [9].

Filim 1947-yilda suratga olinganiga qaramasdan barcha jabhalarda hozirgi shu yo‘nalishda olingan kino namunalari bilan bemaol raqobatlasha oladi. Ayniqsa bugungi kunimizda tarixiy siymolarimizni sahnalashtirishga jiddiy urinishlar ketayogan bir davrda mazkur kino film barcha siyosiy mafkuraviy unsurlarga qaramasdan katta bir maktab bo‘la oladi. Filmning texnik va umumam boshqa jihatlarini kinoshunoslarga qoldirgan holda uning mafkuraviy tahliliga o‘tish tadqiqotimizning maqsadiga muvofiq. Film urushdan keyingi davrda, ya‘ni sovet mafkurasi milliy tarix va madaniy merosni yangi ideologik talqinlar asosida qayta shakllantirishga alohida e‘tibor qaratgan bir davrda yaratilga edi. Shu sababli filmni nafaqat tarixiy-biografik asar, balki Sharqning buyuk mutafakkiri obrazini sovet modernizatsion diskursi doirasida qayta talqin qiluvchi mafkuraviy matn sifatida ham dolzarb tadqiqot materialini hisoblanadi.

Filmda hazrat Navoiy yuksak ma‘rifat egasi sifatida tasvirlanadi. Biroq aynan shu nuqtada sovet oriyentalizmining yanada murakkab tabiati namoyon bo‘ladi. Ya‘ni Navoiy obrazi milliy tarixning vakili bo‘lish bilan birga, sovet mafkurasi tomonidan “xalqparvar”, “adolatparvar”, “ma‘rifatparvar” va deyarli proto-sotsialistik qahramon sifatida qayta konstruksiya qilinadi. Vaholanki Navoiy o‘z davrining kishisi ekanligi uning ham feodal mulkdor ekanligi mutlaqo e‘tibordan chetda qoldiriladi.

Film davomida Alisher Navoiy Movaraunnahr tarixining klassik mutafakkiri emas, balki xalq manfaatini himoya qiluvchi, zulmga qarshi kurashuvchi va ilm-ma‘rifatni ulug‘lovchi ideal siyosiy figura sifatida gavdalantiriladi. Shu tariqa tarixiy shaxs sovet mafkuraviy tilida “qaytadan konstruksiya” qilinadi. Mana shu konstruksiyada Navoiy ko‘proq mehnatkashlarning g‘amxo‘ri va ularning dardkashi sifatida ko‘rsatilib feodallarga qarshi yetakchi sifatida qo‘yiladi. Ayniqsa, bunga, filmda kichik obrazlarda namoyon bo‘ladigan shaharning hunarmand xalq vakillari bilan bo‘lgan Alisher Navoiyning munosabatlarining markazga olib chiqilganda aniq guvoh bo‘lish mumkin.

Bundan tashqari, filmda tarixiy konfliktlarning talqini ham sovet tarix falsafasi mafkurasi asosida qayta quriladi. Navoiy va saroy amaldorlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar sinfiy konflikt sifatida ko‘rsatiladi. Natijada temuriylar davridagi murakkab siyosiy va madaniy jarayonlar sovetcha “oddiy xalq va zolim beklar” sxemasi asosida soddalashtiriladi.

Alisher Navoiy filmda uning mutafakkirigidan ham ko‘proq odiy xalqning rahnamosi sifatidagi obrazi bo‘rttirilgan. Ayniqsa, Navoiyning sermazmun hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalari orqali sovet mafkurasi ilgari surgan adolatli va xalqparvar jamiyat ideallariga yaqin fikrlarni ifodalashi uning sovet narrativlari doirasida qayta talqin qilinganligini ko‘rsatadi. Shu tariqa tarixiy Navoiy obrazi o‘z davrining murakkab falsafiy va madaniy kontekstidan ajratilib, sovet modernizatsiyasida ma‘naviy ajdodlaridan biri sifatida kashf etiladi.

Kinodagi odiy tomoshabinga beriladigan xulosa juda muhim. Kino shunday xulosa qilishga yordam beradi. Go‘yo milliy tarix feodal zo‘ravon hokimlar beklar zulmiga qarshi odiy xalqning kurashidan iborat bo‘lib. Feodal jamiyatda tarbiya topishiga qaramasdan buyuk daho ham alal oqibat zolim saltanatning xalqning bosh ezig‘uvchisi ekanligini va haqiqiy u istagan jamiyat albatta kelajagini bashoratini beradi. Bu bashorat kinoning so‘nggi lahzalarida Alisher Navoiy tilidan shunday satrlar bilan yangraydi.

Navoiy Sul-ton Husaynga..

Aniq toj, garchi yoqut, garchi zardur,

Xaloyiq boshiga bitgan zarardur.

Bu baytning ma‘nosiga ilgari tushunmagan erdim. Lekin endi bilsam bu so‘zlarning ma‘anosi katta erkan.

Xalqni baxt sari eltuvchi toji taxt ermas, xalqning o‘zi, ulkan bog‘ bunyod etib undan baxramand bo‘ladi. Farxodning jasoratini xalqning o‘zi davom ettirishiga iymonim komildir. Zero qachonlardir, kishilar meni o‘z buyuk hamkorliklariga chorlagaylar shunda men o‘z sherlarim bilan labbay deb javob berrurdim.....

Mazkur monolog filmning umumiy mafkuraviy yo‘nalishini yaqqol namoyon etadi. Unda Navoiy nafaqat tarixiy mutafakkir, balki kelajakdagi xalqparvar va adolatli jamiyat g‘oyalarning bashoratini beradi. Shu tariqa tarixiy shaxs obrazi sovet mafkurasi ilgari surgan ijtimoiy ideallar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Film sovet mafkurasi doirasida yaratilib, o‘z ichida ma‘lum bir tarixiy voqelikni yoritib, mafkuraviy jihatdan sovet sotsial realizmini ommaga yetkazib berishni maqsad qilgan va ma‘lum bir ma‘noda buni uddalagan ham. Filmda o‘zbek xalqining fojiviy tarixi, milliy realizmi qora fonda ko‘rsatilib, tarixiy taraqqiyotning mantig‘ini sotsializmga, sovet mehnatkashlarining istiqboliga ulashga juda katta xohish bor. Bizningcha, buni ijodkorlar ma‘lum bir ma‘noda yuqori darajada bajara olishgan. Sir emas, hali 37-yillarning sovuq nafasi ko‘tarilmagan bir paytda bunday katta asarni, milliy qahramonni yaratish, albatta, sovetlashtirish yoki sotsiallashtirishsiz mutlaqo imkonsiz edi. Chunki filmdagi har bir dialog uchun chuqur javobgarlik bor edi. Ijodkorlar har bir satr uchun javob berishi kerak bo‘lgan bir davrda bunday asarning yaratilishining o‘ziyiq ulkan matonat va mahorat talab qiladi.

Xulosa o‘laroq shuni aytish mumkinki, “Alisher Navoiy” filmi tarixni taqdim etishdan ko‘ra ko‘proq uni sovet mafkurasiga joylashtirishga urinish hisoblanadi. Navoiy necha asrlar oldin o‘z davri falsafiy tafakkurida shakllangan, davrining barcha xususiyatlari va omillari bilan vujudga kelgan fenomen darajasidagi shaxs bo‘lsa-da, u oriyentalizmdagi an‘anaviy tafakkurda, murakkabligini yo‘qotib, mehnatkash xalqning vakili sifatida soddalashtirilgan obrazga aylanadi. Bu soddalashtirish shu darajaga yetdiki, uning juda boy badiiy merosi bo‘lishiga qaramasdan, deyarli butun film davomida Navoiy tilidan keltirilgan baytlar Izzat Sulton va Uyg‘unlar tomonidan yozilgan. Yana, asarga qo‘shilgan to‘qima obraz –Guli ham Alisher Navoiy siymosining murakkab jihatlarini soddalashtirib, uni aniq chegaradagi sovet siyosiy mafkurasi uchun maqbul bo‘lgan obrazga aylantiradi.

Mazkur xulosamizdan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni havola etishni joiz deb bildik. Bugungi kunimizda tariximizni yoshlar ongiga yetkazishda obraz san‘ati – kinoga murojaat qilar ekanmiz, albatta, tarixiy tajribadan tanqidiy asosda xulosa qilgan holda, diskursiv dominantlikni e‘tibordan chetda qoldirmasdan, tarixiy qahramonlarimizning murakkab ko‘p qatlamli tarixiy qiyofasini yetkazib berishda milliy maktabimizni yaratishga alohida e‘tibor berishimiz kerak. Aks holda, biz buyuk siymalarimizni istab-istamasdan gollivud, yoki sovet kino maktablarida shakllangan tarixiy qahramonlarni gavdalantishdagi yondashuvlarini ham o‘zimizda joriy etish orqali o‘z buyuklarimizni yot qarashlarda shakllangan qiyofa bilan xalqimizga yetkazamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yıldırım, E., & Hira, İ. (2016). Türk televizyon dizilerinde oryantalist yansımalar: Muhteşem Yüzyıl örneği. PESA Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2(2), 43–53.
2. Ro‘ziboyev D.D. Rus oriyentalizmining shakllanishi va uning o‘ziga xosligi. “Ta‘lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida” mavzusidagi ilmiyamaliy konferensiya to‘plami // Toshkent, 2023-yil 13-aprel. B.428-432.
3. Morrison A. “Applied Orientalism” in British India and Tsarist Turkestan // Comparative Studies in Society and History. – 2009. – Vol. 51, No. 3. – P. 619–647, esp. P. 620–625.; Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca: Cornell University Press, 2015; Tolz V. Russia's Own Orient: The Politics of Identity and Oriental Studies in the Late Imperial and Early Soviet Periods. Oxford: Oxford University Press, 2011; Kassymbekova B. Fear, Loathing and Revolution: Stalin's Soviet Empire in Central Asia. Pittsburgh: University of Pittsburgh Press, 2021.
4. Cinema for the “Soviet East”: National Fact and Revolutionary Fiction in Early Azerbaijani Film Author(s): Michael G. Smith Source: Slavic Review, Vol. 56, No. 4 (Winter, 1997), p 646.
5. Stalin quoted at the Thirteenth Congress of the Russian Communist Party in 1924, from Richard Taylor, The Politics of the Soviet Cinema, 1917-1929 (Cambridge, Eng., 1979), 64.

For background, see Jay Leyda, *Kino: A History of the Russian and Soviet Film* (Princeton, 1985), 158. *Slavic Review* 56, no. 4 (Winter 1997)

6. «Белое солнце пустыни». Как создавался культовый советский истерн. <https://dzen.ru/a/ZCV-rk2Lwi5O6I1d?ysclid=mps9ckuyr9932657350>
7. Кавказская пленница, или Новые приключения Шурика. СССР, 1967. <https://dzen.ru/a/aM0atbGAjgQn4hfe?ysclid=mps9151fxg575333403>.
8. Пушкин А.С. Кавказский пленник // Полное собрание сочинений: в 10 т. Т. 4. Москва: Художественная литература, 1975. Толстой Л.Н. Кавказский пленник // Собрание сочинений: в 22 т. Т. 10. Москва: Художественная литература, 1982;
9. Shohida Eshonboboyeva. Qat'iy mafkuraviy talablar asosida ishlangan kino. "Alisher Navoiy" haqidagi yagona o'zbek badiiy filmi tahlili. <https://oyina.uz/uz/article/2485>.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000